

## QADIMGI XORAZM HUDUDIDAN TOPILGAN TANGALAR VA ULARNING O‘RGANILISHI.

*Toshkent Amaliy fanlar unversiteti*

*Tarix va Filologiya fakulteti Tarix yo‘nalishi*

*3-bosqich talabasi Abdulxayeva Zilola*

**Annotatsiya:** Maqolada qadimgi Xorazm hududidan topilgan tangalar va ularning tahlili yoritilgan. Qadimgi tangalar mil.avv. IV asrdan II asrning oxirgi choragigacha zarb qilinmagan. Qadimgi Xorazm davlatida tangalar qariyb 1000 yillik davr mobaynida (mil.avv. II asrdan – milodiy VIII asrgacha) bir xil tarzda ishlangan: oldi tomonida hukmdor va orqa tomonida chavandoz tasviri bo‘lgan.

**Kalit so‘zlar:** Xorazm, tanga, arxeologiya, Qo‘yqirilgan qal’a, yodgorliklar.

Mustaqillik yillarida o‘tmish tarixni o‘rganish bo‘yicha olimlarimiz tomonidan katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ularning olib borgan tadqiqotlari asosida tariximizning no‘malum tomonlari yoritilib, tarixiy rivojlanish jarayonlarini taxlil qilish imkoniyatlari vujudga kelmoqda.

Qadimgi Xorazm davlati mil.avv. IV asrdan milodiy III asrgacha eng qudratli davlatlardan biri bo‘lgan. Qadimgi Xorazm davlati tarixi arxeologik jihatdan keng o‘rganilgan bo‘lsada, uning ijtimoiy –iqtisodiy hayoti bo‘yicha yozma manbalar kam saqlanib qolgan. Tadqiqotchilar bu davrga oid ba‘zi ma‘lumotlarni tangalar, Tuproqqa‘adan topilgan arxiv hujjatlari, Abu Rayhon Beruniyning asarlarida yozib qoldirilgan ma‘lumotlar orqali taxlil qilishgan.

Beruniy ma‘lumotiga ko‘ra, qadimgi davrda Xorazm hududida 300 dan ortiq shaharlar bo‘lgan. Ularning xarobalari bugungi kungacha saqlanib qolgan. Bu ma‘lumotni arxeologik tadqiqotlar ham isbotlaydi. O‘tgan asrning 70-yillar oxiriga kelib 300 dan ortiq yodgorliklar topilgan bo‘lsa, XX asrning 90-yillar oxirida topilgan arxeologik yodgorliklar soni 400 ga yetgan. Qadimgi Xorazm davlati chegaralari bo‘ylab chegara qal‘alari bunyod etilgan. Qadimgi Xorazm davlati atrofidagi ko‘chmanchi qabilalar bilan savdo sotiq munosabatlarini o‘rnatgan.

Qadimgi Xorazm xududida olib borilgan tadqiqotlar natijasida mil.avv. IV asrdan II asrning oxirgi choragigacha Xorazm davlatida tangalar zarb qilinmaganligi aniqlangan. Mil.avv. II asrning oxirgi choragidan Xorazmda Yevratid tetradraxmalariga o‘xshash tangalar zarb qilina boshlanadi. Unda o‘ziga xos tang‘a bo‘lgan. Xorazm xududidan topilgan tangalarni tadqiq qilgan olim E.Rtveladze, bu davrda tangalarning zarb etilishi Xorazmda yangi iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar boshlanganligini va Xorazm davlatini ko‘chmanchi qabilalarga mansub yangi sulola vakillari egallagan degan xulosani beradi. Bu davrda qadimgi Xorazm xududida

urushlar bo‘lib o‘tganligini Qo‘yqirilgan qal’a yodgorligining yong‘ini bilan ham solishtirish mumkin.

Tangalar zarb qilinishiga, bir tomondan Buyuk ipak yo‘lida olib borilayotgan savdoning rivojlanishi tangalar bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan yunon-baktriya tangalariga o‘xshash tangalarni ko‘chmanchi qabilalar zarb etishganligi bilan asoslanadi. Ko‘chmanchi qabilalar Yunon- Baqtriya davlatini bosib olgach, Baqtriyada Demetriy, Yevratid, Geoliokl tangalariga xos, Sug‘dda ham Yevratid tangalariga o‘xshash tangalar zarb etilgan. Tangalarning savdolarni rivojlantirishdagi ahamiyatini bilgan holda Xorazmda yangi sulola tangalar zarb qildirgan. Bu tangalarning bir tomonida otliq suvoriy aks ettirilgan. S.P.Tolstov fikricha, bu Beruniy tomonidan yozib qoldirilgan Xorazmliklar sulolasi asoschisi Siyovushdir. Tangalarning ikkinchi tomonida, podshoning bosh qismi tasvirlangan.

Xorazm afsonalari va Beruniy ma’lumotiga ko‘ra, qadimgi Xorazm davlatiga Siyovush asos solgan. Qadimgi Xorazm davlatida Siyovushiyalar sulolasi hukmron bo‘lgan. Bu ma’lumotni Xorazm tangalari asosida ham asoslash mumkin. Qadimgi Xorazm tangalari qariyb 1000 yillik davr mobaynida (mil.avv. II asrdan – milodiy VIII asrgacha) bir xil tarzda ishlangan: oldi tomonida hukmdor va orqa tomonida chavandoz tasviri bo‘lgan. Bu Xorazmning ma’naviy madaniyatida muqaddas chavandoz obrazi mavjud bo‘lganligini isbotlaydi.

Tangalarda oromiy yozuv asosida shakllangan qadimgi Xorazm yozuvida yozilgan. Bu yozuv O‘rta Osiyo xududida shakllangan eng qadimiy yozuv turiga kirib, u dastlab mil.avv. VI asrga oid Qoraqalpog‘iston xududidagi Oybuyirqal’a yodgorligidan topilgan. Xorazm alifbosi 20 undosh harfdan iborat bo‘lgan. Qisqa unlilar ifodalanmagan. Oromiy yozuvidan tubdan farq qilgan.

Olim E.V.Rtveladze “O‘zbekiston davlatchiligi tarixida Xorazm” nomli asarda qadimgi Xorazm tarixiga oid manbalar va tangalarni taxlil qilib, Xorazm axamoniylar hukmronligidan ozod bo‘lgach, unda 3 ta sulola hukmron bo‘lganligini ko‘rsatib beradi:

1 sulola- Farasman (Fratafern) boshchiligidagi sulola. U mil.avv. VI asrning ikkinchi yarmida Shimoli-G‘arbiy Baqtriya xududidan quyi Amudaryo bo‘yicha kelib o‘rnashganlar va bu xududga o‘z nomini berganlar. Xorazmda ilk davlatchiliga asos solganlar.

2- sulola kelib chiqishi yuechji bo‘lgan sulola vakillari. Ular mil.avv. II asr oxirlarida Yevratid tetradraxmasiga o‘xshash o‘ziga xos tang‘a bilan tangalarni zarb qilganlar. Undagi “podsho” so‘zi grekcha so‘z asosida “`rtw” tarzida ifodalangan.

3-sulola davrida ijtimoiy-siyosiy hayot tubdan o‘zgargan. Tangalardagi sulolaviy tang‘a S shakliga kelgan. Qadimgi Xorazm yozuvi asosida yozilgan. Tangalardagi “podsho” so‘zi ham oromiylarga xos so‘zda “MLK” tarzida

ifodalangan. Ulardan birida Artav shoh nomi o‘qilgan. Bu sulolaga mansub milodiy II asr oxiri va III asr boshlarida Artarmush nomi o‘qilgan.

Qadimgi Xorazm davlati tarixi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar qadimgi Xorazm davlati o‘z taraqqiyoti jarayonida murakkab tarixiy davrni boshdan kechirganligini ko‘rsatdi. Beruniy tomonidan yozib qoldirilgan va xorazm afsonalaridagi Siyovush, Polien asarida ko‘rsatilgan Saksafar, Arrian asarida berilgan Farasman, Kvint Kursiy Ruf asaridagi Fratafern kabi qadimgi Xorazm shohlarining nomlarigina saqlanib qolgan.

Insoniyat tarixida o‘tmish hech qachon izsiz yo‘qolmaydi. Buni Xorazm tarixini o‘rganish misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Keyingi davrlarda Xorazm tarixini o‘rganish borasida qo‘lga kiritilgan yutuq va yangiliklarni tarix fani bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalarda ifodasini ko‘rsak, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Shu orqaligina biz o‘tmish tarixining naqadar boy va chuqur ma’naviy ildizga ega ekanligining guvohi bo‘la olamiz.

#### ADABIYOTLAR:

1. Беруний Абу Райхон, Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. –Тошкент. 1968.
2. Хорезм в истории государственности Узбекистана.-Тошкент.2013.
3. Кой-Крылган-кала — памятник культуры древнего Хорезма IV в. до н.э. — IV в.н.э. -М.: 1967.
4. Ртвеладзе Э.В. Древние и раннесредневековые монеты историко-культурных областей Узбекистана. –Ташкент.2002.